

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ILMIY MEROSI G‘ARB TADQIQOT DOIRASIDA

Egamberdiyev Madiyor Abdusamad o‘g‘li

O‘ZXIA talabasi

Zahiriddin Muhammad Bobur nafaqat buyuk sarkarda va davlat arbobi, balki ulkan ilmiy-adabiy meros qoldirgan alloma hamdir. Uning “Boburnoma” asari nafaqat Sharq, balki G‘arb olimlarining ham qiziqishini tortib, turli ilmiy tadqiqotlarga asos bo‘lgan. G‘arb tadqiqotchilari Boburning tarixiy, adabiy va geografik ma’lumotlariga katta e’tibor qaratgan holda, uning asarlarini tarjima qilish va tahlil qilish bilan shug‘ullanganlar.

So‘nggi temuriy shahzodalardan Zahiriddin Muhammad Boburning jozibador shaxsi, jo‘shqin hayoti va faoliyati, insoniy fazilatlari, jahon faniga qo‘shgan hissasi hamda avlodlariga bag‘ishlab ko‘plab ilmiy-tarixiy, badiiy asarlar yaratilgan. Ta’bir joiz bo‘lsa, jahon tarixnavislik ilmidagi “Eng ko‘p va xo‘p” o‘rganilgan vatandoshimiz ham Boburdir. Ayni kunga qadar o‘zbek yozuvchilaridan tashqari Bobur haqida asar yaratgan bir necha o‘nlab chet ellik mualliflarning nomlari tanish. Jumladan, 1995-yili “Cho‘lpon” nashriyotida ingliz tarixchisi U.Erskinning “Bobur Hindistonda” asari, hind tarixchisi L. P. Sharmaning 1988-yili Dehlida bosilgan “Boburiylar saltanati” asari, amerikalik olim S. M. Berkning “Akbarshoh – boburiylarlarning eng buyugi” (Berk Akbarshoh shaxsiyati va faoliyati misolida Hindistonga Bobur asos solgan, jahon tarixiga, “Buyuk mo‘g‘ul imperiyasi” nomi bilan kirgan saltanatning mustahkam tomir yozish jarayonini tasvirlaydi) asarlarida Boburga zamondosh tarixchilarning qo‘lyozmalari, Hindiston tarixiga oid tadqiqotlar, XX asrning jahonga mashhur olim va tarjimonlarining asarlarida Boburning butun hayot yo‘li, bolalik, o‘spirinlik, yigitlik yillari, tashvishli kunlari, hukmronlik faoliyati, diniy-falsafiy qarashlari, davlatni boshqarish usuli, madaniyat va san’atga munosabati singari masalalar tasvirlangan.

Bobur hayoti va ijodi Fransiyada ham keng o‘rganilgan bo‘lib, Fransiya ilm ahliga Zahiriddin Muhammad Bobur va “Boburnoma” haqida dastavval ma’lumot bergan fransuz sharqshunosi Bartoleme D’Erbelo (1621-1695) hisoblanadi. D’Erbelo o‘zining “Sharq kutubxonasi” (La Biblioteque orientale. Paris, 1967) qomusidagi “Bobur yoki Bobar” nomli maqolasida Boburning hayoti, uning davlati va sarkardalik mahorati, adabiyot va san’atga qiziquvchi ilg‘or fikrli kishi bo‘lgani haqida ma’lumot beradi.

“Boburnoma”ning fanga ma’lum bo‘lishi va tadqiq etilishi G‘arb ilm ahli orasida o‘ziga xos tarzda kechdi. G‘arb ilmiy jamoatchiligiga Bobur nomini birinchi bo‘lib, fransuz olimi D. Derbelo “Sharq kutubxonasi yoxud Sharq fuqarosining bilimiga doir qomuslar” nomli lug‘atga “Bobur yoki Babar” nomli maqolasini kiritish orqali ma’lum qilgan edi. Biroq Evropada Boburning shuhrati yoyilish davri XIX asrning birinchi yarmidan boshlangan. Ular “Boburnoma”ni tarjima qilish bilan birga Bobur shaxsiyatini ham qizg‘in o‘rganganlar. Ingliz sharqshunoslaridan Leyden va Erskinning tarjimasi orqali “Boburnoma” Londonda 1826 yilda ingliz tilida nashr qilingan. [John Leyden, 1826: 432.]

Ushbu nashrdan so‘ng Evropa va boshqa xorij davlatlarida “Boburnoma”ning tarjima qilinishi va uning shaxsiyatiga va qoldirgan ma'naviy adabiy merosiga qaratilgan tadqiqotlar [A.Kayzer, 1828:400.] ko‘payib bordi.

Annetta Susanna Beverij tarjimasidan keyin Amerika Qo‘shma Shtatlari Harvard universiteti professori Viler Tekston “Boburnoma”ni yana bir to‘liq tarjimasini [Wheller M. Thackston,1996: 432.]amalga oshirdi. Ushbu tarjima mutaxassislar tomonidan muvaffaqiyatli deb baholangan. Tarjimonning “Boburnoma”ga badiiy asar sifatida yondashgani tufayli hamda asarga 700 ga yaqin izohning berilgani tarjimaning ommalashishini ta'minlagan. “Boburnoma”ning ingliz tiliga takror tarjimalaridan so‘ng ushbu asar tadqiqiga oid kuzatishlar bir necha sohalarni qamrab oldi. Ular tarix, siyosat, sosiologiya, harbiy strategiya, lingvistika, tabobot, geografiya, shaharsozlik kabilar bilan bog‘liq edi. Lekin bunday tadqiqotlar orasida Boburning shoirlik iqtidori bilan bog‘liq bo‘lgan tadqiqotlar ko‘p emas. Amerika Qo‘shma Shtatlari Ohayyo universiteti professori Stefan Deyl o‘zining “Sakkiz jannat bog‘i. Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Hindistonda Bobur va boburiylar saltanatining madaniyati” nomli monografiyasida Boburning imperatorlik salohiyati, tarix sahnasidagi ahamiyati haqida so‘z yuritish barobarida undagi shoirlik iste’dodini alohida o‘rgangan [Dale, S.F,2004: 60.] . Stefan Deyl “Boburnoma” tarkibida muallif tomonidan kiritilgan nazmiy parchalar va uning o‘zi tomonidan yozilgan she‘rlarni sinchiklab tahlil qiladi. Boburning ham she'r yoza olish va boshqa shoirlarga nisbatan xolis baho bera olish salohiyatini e'tirof etadi. Uning aruzni to‘g‘ri idrok etishi, mumtoz adabiyot an'analari asosida ruboiy, g‘azal namunalarini yozishga bo‘lgan qiziqishini asar voqealariga, tarjimai holiga bog‘lagan holda tadqiq etgan. Monografiyada Boburning shoir sifatidagi qiyofasi o‘rganilgan.

Bugungi o‘zbek boburshunosligida yuqorida tilga olingan tarjimalarning sifati va ularning ingliz kitobxonlari tomonidan qabul qilinishiga oid shu bilan birga boshqa tillarga oid tarjimalarning sifatiga qaratilgan bir qator tadqiqotlar [Xoshimova, 2018.150.] amalga oshirilgan. Lekin bu tarjima nazariyasi masalalarida va undan keyingi “Boburnoma”ning xorijda o‘rganilishiga doir ishlarda tarjimonlarning adabiy muhit masalalariga doir o‘z taxmin va qarashlarini, xolisona baholarini o‘rganishga oid alohida tadqiqot ishi yaratilmagan. Umuman olganda, “Boburnoma”ning tarjima nazariyasiga oid tadqiqotlarda lingvistik aspektda yondashuv etakchilik qilishi jamoatchilikka ma'lum.

“Boburnoma”ni ingliz sharqshunoslari, jumladan Jon Leyden – Uilyam Erskin (1826), Annet Syuzanna Beverij (1921), Uiler Tekston (1996) o‘rgangan. Ingliz tilidagi tarjimalar davri va ularning vaqt tili o‘rtasida katta farqlar mavjud. Biz “Ikkinchi qiz mening validam qutlug‘ Nigorxonim edi. “Bu odamlar o‘zlarining xatti-harakatlarini tasvirlash uchun ishlatadigan so‘zlar, Tengrining xatti-harakatlarini tasvirlash uchun ishlatadigan so‘zlar va Tengrining xatti-harakatlarini tasvirlash uchun ishlatadigan so‘zlar” ularning ishlarida talqin qilingan. J. Leyden va V. Erskine tarjimasi: Ikkinchi qizi Qutluk Nigorxonim mening onam bo‘lib, ko‘p urushlarim va ekspeditsiyalarimda menga hamroh bo‘lgan. Kobulni olganidan besh-olti oy o‘tgach, u 911 yilda Xudoning rahm-shafqatiga yo‘l oldi [Leyden Jon, 1826; 2]. Shuningdek, hind olimi, Kashmir universiteti professori Muhobbul Hasan “Boburnoma”

hususida fikr bildirarkan, bu asarning Boburshoh shaxsiyati va davlat tizimini o‘rganishidagina emas, balki Hindiston tarixi, geografiyasi va madaniyati, o‘tmishini o‘rganishda ham qimmatbaho manba ekanini, Hindistonni, uning xalqi hayotini tasvirlashda muallif idrokining naqadar o‘tkirligini ta’kidlab o‘tadi. “Boburga qadar bironta musulmon tarixchisi yoki geografi (al-Beruniydan mustasno) Hindistonni bu qadar jonli va to‘g‘ri tasvirlagan emas”, deydi muallif. Shuningdek, shoh Boburning o‘z fuqarosi – hind xalqi bilan do‘stona muomalada bo‘lganini, hindlar ham shoh tuzumidan mamnun yashaganliklarini ko‘p bora ta’riflab o‘tadi.

Professor A.Pave de Kurteylning olimlik faoliyatida u tuzgan “Sharqiy- turkiy tillar lug‘ati” (“Dictionnaire de turc orientale”. -Pans, 1870) yohud “Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur va Abulg‘oziy Bahodirxon asarlarni o‘qish uchun izohli lug‘at” alohida ahamiyatga molikdir. Professor A.Pave de Kurteyldagi bu katta tayyorgarlik, eski o‘zbek tili va adbiyotidan egallagan puxta bilim uni “Bobumoma”ni tarjima qilishga undagan edi. 1871-yilda “Boburnoma”ning Pave de Kurteyl tarjimasi ikka jildda nashrdan chiqdi (“Memoire de Baber”, Traduit pour la premiere fois sur le texte djagatai par A.Pavet de Courteille, — editions, 1871). Birinchi jildda tarjimonning o‘n olti sahifalik so‘zboshisi berilgan. Unda “Bobumoma”ning yozilish jarayoni, kitobda keltirilgan voqealar, Boburshohning Afg‘oniston va Hindistonda barpo etgan qudratli imperiyasi xususida ma’lumotlar berilgan [2; 45]. Shunday qilib, Pave de Kurteyl Zahiriddin Muhammad Boburning merosini Fransiyada o‘rganish va targ‘ib qilishda o‘zining yuksak xizmatlari bilan katta hissa qo‘shdi. “Boburnoma”ning tarjimoni sifatida mashhur bo‘ldi. Olim boshlagan bu tarjimonlik ishi jahon ahliga manzur bo‘ldi va Bobur hayotini ko‘plab olimlar tomonidan doimiy ravishda o‘rganilishiga sabab bo‘ldi.

“Boburnoma”ning A.J.Klaprot, A.Longper’e, M.Langle, A.Pave de Kurteyl, F.Grenard, Barye-Grammon kabi tadqiqotchi va tarjimonlari Bobur merosining tarixiy-etnografik, bibliografik hamda lingvistik jihatdan tavsif qilish bilan Yevropada boburshunoslikning rivojiga munosib hissa qo‘shdilar. Qolaversa, Zahiriddin Muhammad Boburning ilm-fan, adabiyot va san’atga baxshida boy merosini to‘plash, nashr etish hamda jahon miqyosida munosib baholamoq uchun yuqoridagi manbalarni e’tirof etish maqsadga muvofiqdir.

“Boburnoma”ning Leyden va Erskin tomonidan chop etilgan nashrida tarjimonlar shu paytgacha fors adabiyoti ta’sirida bo‘lgan turkiy adabiyotning (Chig‘atoy) belgilari haqida gapirar ekan, “Boburnoma”ning uslub jihatdan bironta fors asarlarining belgisini takrorlamasligiga ahamiyat qaratadilar. Ushbu ingliz tarjimonlarining fikriga ko‘ra, asar hashamdorlikdan xoli. Bu jihatdan Boburning asarda mubolag‘a va metaforalarning qo‘llamasligi hamda turkiy tilda tarixiy asar yozish imkoniyatlari fransuz, ingliz tarixshunosligiga o‘xshashligini qayd etadilar. “Bobumoma” asarining tili boshqa Osiyo tillariga nisbatan Evropa tillariga yaqinligi, aniq va soddaligi uning asosiy uslubi ekanini ta’kidlaydilar.[Leyden John.1826: 32.] Darhaqiqat, ingliz sharqshunoslari Boburning odil shoh sifatidagi qiyofasi va saltanatda o‘rnatgan adolatli tuzumi, insoniy fitratini suyub qabul qilishlarida asarning ana shunday omillari muhim o‘rin tutgan edi.

Harvard universiteti professori Viller Tekston “Bobumoma”ning 1996 yilgi nashriga yozgan so‘zboshisida asarning uslubi va tilini tahlil qilar ekan, o‘sha davr Hirot adabiy muhitini o‘rganish asosida Husayn Boyqaro va Navoiy tomonidan turkiy tilda ijod qilishga bo‘lgan rag‘bat ortidan qisqa muddat bu tildagi adabiyot gullab-yashnaganiga e‘tibor qaratadi. Viller Tekston o‘sha davr muhitida turkiy nasriy asarlar salmog‘ining kamligini o‘z davrida fors tilidagi adabiyotning mavqei balandligini tahlil etadi. Tarjimon “Bobumoma”ni turkiy prozadagi eng yirik matn, deya baholaydi. Viller Tekstonning qiyoslashicha, Navoiy va Boburning turkiy tilni hayotiy adabiy vositaga aylantirishga bo‘lgan urinishi xuddi tovada bir zum alanganlangan olov kabidir, boisi ularning bu harakatlariga Markaziy Osiyo va Eron tomondan kirib kelgan urush voqealarining sababchilari (Safaviy va Shayboniylar) tabiiy holatda to‘siq bo‘lganlar. [W.M. Thachston, 1996.407.]

Biror yirik asarning boshqa tilga tarjima qilinishida, albatta, tarjimonlar asliyatning qay tarzda xorij kitobxoniga etkazish borasida bosh qotiradilar. Buning uchun o‘zlaridan avvalgi tarjimonlar tajribasiga suyangan holda o‘z faoliyatlarini amalga oshiradilar.

Kuzatgan tarjimonlarimiz orasida “Boburnoma” tarjimasiga chuqur kirishish barobarida undagi ma‘lumotlarni sinchiklab tahlil qilgan, bu haqda yigirmaga yaqin tadqiqot maqolalarini [Annette S. Beveridge, 1910:110-128] e‘lon qilgan Anneta Beverij xonimning faoliyati diqqatimizni tortdi.

“Boburnoma”ning ingliz kitobxonlariga manzur bo‘lishida ulkan xizmatlarni amalga oshirgan Annetta Beverij xonim tarjima jarayonida Haydarobod qo‘lyozma nusxasiga [Beveridge, 1921:xxviii-lxi] tayanadi. Asarni ingliz tilida e‘lon qilish asnosida unga tarjimon izohlarini qo‘shib chop ettiradi. Olima “Boburnoma”ning tarjimasiga Bobur bosib o‘tgan yo‘llar – tiklashga harakat qilib, Xuroson, Movarounnahr, Hindiston kabi mamlakatlarning hududiy, regional chegaralarini o‘rganadi hamda xaritalar ishlab chiqib, nashr ilovalariga qo‘shgan edi. Annet Beverij xonim “Boburnoma”ni aynan turkiy tilni chuqur o‘rgangan holda tadqiq etadi hamda uning matn leksikasiga ehtiyotkorona munosabatda bo‘ladi. Olima asarni o‘rganar ekan, Movarounnahr va Xurosonda kechgan adabiy manzaralar, tarixiy asarlarning yozilish uslubi, shuningdek, “Boburnoma” matnining yaralish sabablari haqida o‘z ilmiy taxminlarini ilgari suradi.

Jonajon Vatanimiz milliy rivojlanishning yangi bosqichiga – Uchinchi Renessans davriga qadam qo‘yayotgan, hayotimizning barcha jabhalarida tub o‘zgarishlar yuz berayotgan bugungi kunda Bobur Mirzoning bebaho merosini chuqur o‘rganish va ommalashtirish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Zahiriddin Muhanmad Bobur. Boburnoma”. Shams porso tarjimasi Toshkent. 2015.
2. Beverij, Anette Susannah. “Boburnoma” ingliz tilida. Hindiston imperatori Bobur. – London, 1921. – 880 bet.

3. U. Erskin. Bobur Hindistonda. Toshkent. “Cho‘lpon nashriyoti”. 1995.
4. Zohidov V. Bobirning faoliyati va ilmiy adabiy merosi haqida. Kitobda: Bobir. Boburnoma. -T.:1960.
5. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/3461/4298>